# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 2-avgust, № 155 (8778) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

**Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligi oldidan**

## QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR

### YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING POYDEVORI

Mamlakatimizning davlat mustaqilligiga erishishi, huquqiy demokratik davlat qurilishi, yangi jamiyatga o‘tish davrida siyosiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash, ma’naviy-ruhiy poklanish hamda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olishi muhim tarixiy voqealardir.

Yurtimiz siyosiy-huquqiy tizimi ko‘p bosqichli islohotlarni boshdan kechirdi. Qonunchilik yillar davomida yanada mustahkamlanib, takomillashtirilib borildi. Xususan, jadal rivojlanayotgan zamonamizga hamohang bo‘la oladigan Konstitutsiyamizning yangi tahrirda qabul qilinishi davlatimiz qonunchiligidagi muhim o‘zgarishlardan biri bo‘ldi. Asosiy Qonunimizga barcha sohani qamrab oluvchi yangi normalar kiritildi hamda mavjud normalar yanada takomillashtirildi. Shuningdek, boshqa qator huquqiy hujjatlarga ham o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

**Aholiga hamma qulaylikni yaratish, ularning yashash sharoitini yanada yaxshilash maqsadi rivojlanishning asosiy bosqichi sifatida namoyon bo‘ldi. Raqamlashtirilgan yangi asrda qog‘ozbozlik va ortiqcha ovoragarchiliklardan voz kechish maqsadida barcha davlat xizmati yagona tarmoqqa birlashtirilib, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan keng foydalanishga o‘tildi. Aholining davlat tashkilotlariga murojaatlarini interaktiv tarzda qabul qilish va ko‘rib chiqish, elektron murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish orqali vaqt va xarajatlarni tejash, xizmatlarni soddalashtirish samarali yo‘lga qo‘yildi.**

Davlat xizmatlari markazlarida fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish, ular asosida vakolatli organlar bilan elektron hujjat almashish asosida hujjatlar tayyorlab taqdim etish, bojlar va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar to‘lovini bank bo‘limi orqali amalga oshirish, tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olish kabi xizmatlar yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, fuqarolar markazning o‘zida kommunal to‘lovlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlik faoliyati, soliq to‘lovlari va boshqa masalalarga oid axborotlarni to‘liq shaklda olish imkoniga ega bo‘ldi.

Davlat siyosatida ochiqlik va shaffoflik tamoyili yanada kuchaytirildi. Davlat boshqaruv tizimida qabul qilinayotgan barcha me’yoriy-huquqiy hujjatlar internet tarmoqlari orqali aholiga taqdim etilib, barcha hukumat idoralari ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatildi.

Bularning barchasi “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, degan ezgu g‘oya asosida amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlash, odil sudlovga erishishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar olib borilyapti.

➡ 2

## INSON QADRI ULUG‘LANGAN YURTDA AHOLI FAROVON YASHAYDI

*Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida belgilab qo‘yilgan O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani haqidagi asosiy tamoyil mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda o‘zining hayotiy ifodasini topmoqda.*



**Nuqtai nazar**



Hasan PAYDOYEV, Sirojiddin VOHIDOV olgan suratlar.

### To‘g‘ri va odilona tanlangan strategik yondashuv

Keyingi yillarda inson qadri oliy mezon bo‘lgan yangi hayot, yangi jamiyat qurishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida ijtimoiy sohada misli ko‘rilmagan ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, fuqarolarga ko‘rsatilayotgan yordam ko‘lami va turlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2 baravarga oshib, kam ta’minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobar ko‘paydi, nogironligi bo‘lgan shaxslar va bolalar parvarishi bilan band bo‘lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.

Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalari huquq va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy qilish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.

➡ 3

## O‘zbekiston va YUNFPA o‘rtasidagi hamkorlik istiqbollari

*Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMT Aholishunoslik jamg‘armasining (YUNFPA) O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Nigina Abaszade bilan uchrashuv o‘tkazdi.*

**Uchrashuv**

Unda O‘zbekiston va YUNFPA hamkorligining bugungi holati hamda istiqbollari, jumladan, jamg‘arma ko‘magida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan loyiha va tadbirlar bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqildi.

Muloqot davomida O‘zbekiston hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarini ishlab chiqishda bugungi demografik jarayonlarni hisobga olish, 2025-2026-yillarda aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha hamkorlik qilish masalalari muhokama etildi.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash asosida aholi soQliQini saqlash, reproduktiv salomatlikni yaxshilash va kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan loyihalar samaradorligiga erishish yuzasidan aniq takliflar ilgari surildi.

Shu bilan birga, respublikada zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan qonunlarni hayotga tatbiq etishda ilg‘or tajribalardan samarali foydalanish masalasida fikr almashildi, bu borada hamkorlikda alohida chora-tadbirlar ishlab chiqilishi belgilab olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

## UCHTA SAMARADOR LOYIHA SHAROFATI

*“Navoiyazot” aksionerlik jamiyatida bir qator investitsiyaviy loyihalar samarali amalga oshirilishi tufayli xomashyo, kimyoviy vosita va butlovchi materiallarning katta xarajatlar evaziga xorijdan keltirilishiga barham berildi. Natijada mamlakatimiz konchilik sanoatida sianli tuzlar, teomochevina, poliakrilamid kabi kimyoviy birikmalarga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qanoatlantirishga erishildi. Dastlabki bosqichda kaustik soda sexining ishga tushirilishi bilan ushbu xomashyo ta’minotidagi uzilishlarga barham berilibgina qolmay, mahalliylashtirish hisobiga 6 million dollar mablag‘ tejab qolindi. Pirovardida eksport hajmi sezilarli darajada oshdi.*

**Sanoat korxonalarida**

Prezidentimizning 2017-yil 24-iyuldagi “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyatida investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, keng ko‘lamdagi imtiyozlar asosida uchta samarador loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish choralari belgilangani ana shu muvaffaqiyatlarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

— Mazkur qaror asosida moliyalashtirishdan tortib bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish, pudratchilarning soliq to‘lovi va boshqa barcha jarayon soddalashtirildi, — deydi “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati PVX, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish kompleksi boshlig‘i Ramil Gilvanov.

➡ 2

**Mushohada**

## BARQAROR KELAJAKKA MUSHTARAK YONDASHUVLAR

*Prezidentimiz tomonidan muntazam ravishda Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlarida ilgari surilayotgan tashabbuslarning olqishlanayotgani O‘zbekistonning tuzilmadagi maqomi va obro‘sini belgilabgina qolmay, butun turkiy dunyoning Yurtboshimizga yuksak ehtiromi hamda liderlik salohiyatining e’tirofini ham anglatadi.*

Davlatimiz rahbari tashabbusi va rahbarligida yurtimizda jadal olib borilayotgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ulkan islohotlar turkiy dunyo xalqlarida uchinchi Renessans g‘oyasi real voqelik kasb etishiga katta ishonch uyg‘otmoqda.

Shu yil 6-iyul kuni Ozarbayjonning qadimiy Shusha shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti rahbarlarining norasmiy sammitida O‘zbekiston Prezidentining nutqida tilga olingan masalalar yana bir karra davlatimiz global muammolar yechimida o‘z ovoziga ega ekanini namoyon etdi.

Qayd etish joizki, shu kungacha bo‘lib o‘tgan kengash sammitlarida turkiy davlatlar hamdo‘stligi doirasida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalardagi ko‘plab muhim sohalar, jumladan, savdo-iqtisodiyot, transport, investitsiya-moliya, ekologiya masalalari keng muhokama qilingan, o‘zaro kelishuvlarni jadallik bilan amalga oshirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yilgan. Galdagi tarixiy uchrashuvda esa davlatimiz rahbari tomonidan mintaqamizda vujudga kelgan eng og‘riqli masalalar tilga olindi. Masalan, to‘rt muhim yo‘nalish — savdo va transport yo‘llarini rivojlantirish, muqobil energetika, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish, barqaror tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash masalalari yuzasidan jiddiy taklif-mulohazalar o‘rtaga tashlandi.

*“Bunday murakkab vaziyatda azaliy qardoshlik ruhidan kuch olayotgan aloqalarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishni, umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Shu ma’noda, bugungi yig‘ilishimiz “Transport, o‘zaro bog‘liqlik va iqlim harakati orqali barqaror kelajakni bunyod etish” shiori ostida o‘tayotgani dolzarb ahamiyatga ega”*, dedi Prezidentimiz o‘z nutqida.

Yurtboshimiz tarixi, tili va madaniyati mushtarak bo‘lgan qardosh xalqlar hamda davlatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni yuksak pog‘onaga olib chiqish zarur ekanini qayd etdi. Darhaqiqat, turkiy xalqlar o‘zlarining mushtarak tarixi, ilmiy va badiiy merosi bilan har qancha faxrlansa arziydi. Birgina Alisher Navoiy fenomeni xalqlarimiz adabiyoti va madaniyatining yuksak cho‘qqisidir.

➡ 2

## «XOTIN-QIZLARGA HUQUQIY KO‘MAK» HUQUQIY AKSIYASI

**2024-yilning 1-avgustidan 30-avgustigacha “Xotin-qizlarga huquqiy ko‘mak” huquqiy aksiyasi o‘tkaziladi.**

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tashkil etilayotgan ushbu aksiya davomida:**

— sayyor qabullar;
— “Adliya kuni” tadbirlari;
— “Huquqiy targ‘ibot kuni” tadbiri;
— mehnat yarmarkalari;
— xotin-qizlar bilan uchrashuvlar;
— davra suhbatlari;
— audiopodkastlar;
— bepul onlayn kurslar;
— bepul yuridik yordam;
— xotin-qizlar huquqlariga rioya etilishi bo‘yicha o‘rganishlar;
— huquqiy maslahatlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.



# QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR

## YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING POYDEVORI

1 Ushbu sohani takomillashtirishga qaratilgan o‘ndan ortiq Farmon va qarorlar imzolandi. Ayrim kodekslar hamda qonunlar yangi tahrirda qabul qilinib, ba’zilariga zaruriy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Ayonki, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz sud-huquq tizimini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Sud hokimiyati mustaqilligi, u faqat qonunga bo‘ysunishi hamda sudyalarning daxlsizligi kafolatlari ta’minlanishi sud tizimi faoliyati samarali ishlashining garovidir. Istiqlol yillarida sud hokimiyati mustaqilligi yanada kuchaytirildi, ularning faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash uchun ko‘plab chora-tadbirlar olib borildi.

Sud-huquq tizimining ochiqligi va hisobdorligini ta’minlash aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kuchaytirishning muhim omilidir. Sudlar to‘g‘risidagi axborotni aholiga yetkazish “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilab qo‘yildi. Unga ko‘ra sudlar o‘z faoliyati, qarorlari va tartiblari to‘g‘risida jamoatchilikka ma’lumot taqdim etishi, fuqarolarning odil sudlovdan foydalanishi va huquq tizimining ishlashi haqida xabardor bo‘lishini ta’minlashi zarurligi belgilandi.

Yurtimizda inson qadri aziz. Har bir fuqaro xohish-irodasini amalga oshirishi, salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, kelajagini o‘zi tanlash va qurish imkoniyatiga ega.

Bugun taraqqiyotning yangi bosqichida O‘zbekiston farovonlik va adolat yo‘lida salmoqli yutuqlarga erishdi, deb ishonch bilan aytamiz. Bunda, albatta, mehnatkash va oliyjanob xalqimizning hissasi beqiyos. Zero, inson chin ma’noda qadr topgan, erkin va farovon hayot qurish, adolat va qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikka erishish, qudratli yangi O‘zbekistonni barpo etish har birimizning asosiy maqsadimizdir.

**Narimon UMAROV,**
**Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi.**

# ISHLAGAN HAR BIR AYOLGA “DEKRET” PULI BERILADI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining shu yil 30-iyul kuni bo‘lib o‘tgan majlisida “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi. Xo‘sh, ushbu hujjat loyihasini ishlab chiqishga nega zarurat tug‘ildi? Unda qanday yangi normalar belgilanmoqda?*

*Aytish kerakki, qonun loyihasida davlat ijtimoiy sug‘urtasi tizimi va davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘lovlarini to‘lash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar o‘rin olmoqda.*

### Fikr

Jumladan, inson hayoti va faoliyati davomida vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotganida (o‘zi yoki farzandi kasal bo‘lganida, qisqa davolanishda, tug‘uruq davrida) yoki ishsiz qolganida uni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlarning ijtimoiy ta’minot to‘lovlariga oid ortiqcha yuklamadan ozod qilinishi nazarda tutilyapti. Chunki bugungi kunda xodimlar vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotganida yoki ishsiz qolganida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda qator muammolarga duch kelmoqda. Xususan, “dekret” puli va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik (kasallik) nafaqalari ish beruvchilar uchun ortiqcha moliyaviy yuklama bo‘lgani sababli ushbu nafaqalarni xususiy sektorda to‘lamaslik yoki ortiqcha to‘lovlardan qochish maqsadida ish beruvchilar tomonidan ayollarni, ayniqsa, homiladorlarni ishga olmaslik yoki ishdan bo‘shatish holatlari uchrab turibdi. O‘rganishlar natijasida 25 ta xususiy korxonadan 12 tasida kasallik nafaqasi, 15 tasida “dekret” puli yoki kasallik nafaqasi umuman to‘lanmagani aniqlangan.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 25-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq 2023-yildan boshlab Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etilib, xususiy sektorda ishlovchilarga “dekret” pulining minimal 2,5 mln. so‘mgacha miqdori qoplab berilayotganiga qaramasdan, nafaqaning qolgan qismi ish beruvchi zimmasida qolib, mazkur tizim tadbirkorlar uchun moliyaviy masalalar keltirib chiqarmoqda.

Masalan, hozirda respublika bo‘yicha o‘rtacha ish haqi 4,9 mln. so‘mni tashkil qilsa, o‘rta hisobda “dekret” puli 19,6 mln. so‘m bo‘ladi. Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasidan 2,5 mln. so‘m to‘lansa, qolgan 17 mln. so‘mi ish beruvchi tomonidan to‘lanishiga to‘g‘ri kelmoqda.

Raqamlarga e’tibor qaratsak, birgina o‘tgan yilda tug‘ilishlar soni 962 ming bo‘lsa-da, 168 ming “dekret” varaqasi (17 foiz) ochilgan, shundan Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi hisobidan atigi 16 ming (10 foiz) ayolga “dekret” puli qoplab berilgan xolos.

Yana bir masala, Mehnat kodeksiga asosan mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinganda, ish beruvchi tomonidan ish haqining 1 baravari miqdorida ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lanishi kerak. Moliyaviy inqirozga uchragan korxonalar ishdan bo‘shatish nafaqasini to‘lolmasligi oqibatida xodimlar boshqa ish topguniga qadar daromadsiz qolmoqda. Jumladan, 2023-yilda 33,9 ming korxona va tashkilotlar tugatilgan bo‘lib, ulardagi 125 ming xodim ishdan bo‘shatilgan. Va ularning ko‘pchilik qismiga ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lanmagan.

Mazkur qonun loyihasi bilan yuqoridagi masalalarning yechimiga qaratilgan Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tomonidan aholini sug‘urtalash tizimi joriy etilishi belgilanayotgani diqqatga sazovor. Bu orqali inson hayoti va faoliyati davomida vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotganida (o‘zi yoki farzandi kasal bo‘lganida, qisqa davolanishda, tug‘uruq davrida) yoki ishsiz qolganida Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi hisobidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Bu qanday amalga oshiriladi? Qonun loyihasi bilan mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilmoqda.

Birinchi bosqichda 2025-yil 1-iyuldan boshlab barcha sug‘urtalangan ayollarga, ularning bandlik va mehnat faoliyati turi, sug‘urtalash manbasidan qat’i nazar, homiladorlik va tug‘ish nafaqasi to‘lab beriladi.

Ikkinchi bosqichda 2026-yil 1-yanvardan barcha sug‘urtalangan jismoniy shaxslarga, ularning bandlik va mehnat faoliyati turi, sug‘urtalash manbasidan qat’i nazar, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to‘lab beriladi.

Uchinchi bosqichda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga asosan sug‘urtalangan shaxslarga ishsizlik nafaqasi va boshqa turdagi to‘lovlar joriy etilishi ko‘zda tutilmoqda.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi, faoliyat turidan qat’i nazar, ishlayotgan xodimlarga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi, homiladorlik va tug‘ish nafaqasi hamda ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘liq to‘lanishi, ijtimoiy faol aholining kambag‘al oilalar toifasiga tushib qolishining oldini olishga, tadbirkorlarni ijtimoiy ta’minot to‘lovlariga oid ortiqcha yuklamadan ozod etishga xizmat qiladi.

**Mavluda XO‘JAYEVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisi.**

## Qonunchilik palatasi qo‘mitasida

# KONSULLIK USTAVINING IJRO ETILISH HOLATI QAY DARAJADA?



*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonunning Tashqi ishlar vazirligi tizimida ijro etilishi holatini nazorat-tahlil tartibida o‘rganish yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi.*

Unda O‘zbekiston Respublikasi diplomatik konsullik muassasalarining xorijiy mamlakatlardagi fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga konsullik xizmatlarini ko‘rsatish, jumladan, vizalarni rasmiylashtirish, ushlab turilgan, qamoqqa olingan, ma’muriy qamoqqa olingan va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan yoxud bedarak yo‘qolgan fuqarolarga hamda odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish va ko‘maklashish bilan bog‘liq funksiyalarini amalga oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarga alohida e’tibor qaratildi.

Ma’lum qilinganidek, joriy yilning o‘tgan davrida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik hamda konsullik muassasalari tomonidan 192 533 ta murojaat qabul qilingan va o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqilgan. Murojaatlardagi masalalar yuzasidan esa vakolat doirasida 130 807 ta konsullik harakati amalga oshirilgan.

Shuningdek, joriy yil davomida konsulliklar ro‘yxatida doimiy hamda vaqtincha turgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining 2 434 nafariga fuqarolik holati masalalari, 13 491 nafariga xorijga chiqish biometrik pasportlarini va 21 464 nafar vatandoshga O‘zbekistonga qaytish guvohnomalarini rasmiylashtirish bo‘yicha huquqiy va konsullik xizmatlari ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlardagi O‘zbekiston fuqarolari bilan birgalikda 735 ta turli madaniy-ma’rifiy va 696 ta vatanparvarlikka oid tadbir, 352 ta sayyor qabul tashkil etilgan.

Munozaralar davomida deputatlar mazkur Qonun ijrosini ta’minlash bo‘yicha vazirlik tomonidan amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda, e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan ayrim masalalar ham borligini qayd etdi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi konsullik muassasalari va diplomatik vakolatxonalari tomonidan mutasaddi vazirlik va idoralarga yuborilayotgan xizmat yozishmalarini hamda ma’lumotlarni olishda yuzaga kelayotgan noqulayliklar, jumladan, murojaatlar bo‘yicha kerakli ma’lumotlarning belgilangan muddatlardan kechikib yetib kelish holatlari mavjudligi ta’kidlandi.

Qizg‘in muhokama davomida deputatlar shu va boshqa masalalarga e’tibor qaratib, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik va konsullik muassasalari hamda konsullik okruglari qaydida vaqtincha turgan fuqarolarni ushbu davlatning qonunlari, boshqa normativ hujjatlari, mahalliy urf-odatlari to‘g‘risida safar oldidan xabardor qilib borish bo‘yicha qator taklif va tavsiyalar berdi.

Yig‘ilish yakunida muhokama etilgan masalalar yuzasidan kelgusida parlament hamda vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

# XORIJDAGI FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARI KUCHAYTIRILMOQDA

*Ayni paytda Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun tayyorlanmoqda.*

Ushbu qonun loyihasi bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga xorijiy davlatlar sudlarining qarorlarini tan olish va ijro etish, jazo belgilash hamda mahkumlarni topshirish va ularni qabul qilish asoslari, sud jarayoni ishtirokchilarining protsessual maqomini nazarda tutuvchi tegishli qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritilmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi xorijdagi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini yanada samarali himoya qilish, ularning qonuniy huquq va manfaatlariga ziyon yetkazilishining oldini olish, mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi mavqeini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mas’ul qo‘mitada qonun loyihasini takomillashtirish ishlari davom etmoqda.

# IPOTEKA KREDITI BERISHNING ZAMONAVIY BOZOR TIZIMI SHAKLLANTIRILADI

*Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan “Ipoteka krediti bozorining rivojlantirilishi va kengaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.*

Mazkur qonun loyihasi bilan “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali garov xatini rasmiylashtirish, ro‘yxatdan o‘tkazish, uning aylanmasi tartibi va tegishli ravishda ipotekani qayta moliyalash jarayoni soddalashtirilmoqda.

Shuningdek, garov xatini onlayn tartibda yoki davlat xizmatlari markazlariga borish orqali rasmiylashtirish belgilanayotir. Qolaversa, elektron garov xatining konsepsiyasi joriy etilyapti. Bu esa xarajatlarni kamaytirish va vaqtni tejash imkonini beradi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi ipoteka garov xatlari aylanmasini yanada rivojlantirish, aholiga berilgan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ipoteka kreditini berishning zamonaviy bozor tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur qonun loyihasi mas’ul qo‘mita tomonidan Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibiga ikkinchi o‘qishga kiritish uchun tayyorlanmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

## YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

### “E-9 Pay” kompaniyasi bilan hamkorlik memorandumi imzolandi



*Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Koreya Respublikasining “E-9 Pay” kompaniyasi rahbariyati o‘rtasida uchrashuv o‘tkazildi.*

Unda kelgusida Koreyaga ishlash uchun borayotgan fuqarolarimiz ish haqini “E-9 Pay” kompaniyasi orqali xavfsiz va qulay tarzda yuborishida yordam ko‘rsatish maqsadida hamkorlik memorandumi imzolandi. Yurtdoshlarimiz qiyin vaziyatda qolganda tarjimonlik xizmatini bepul amalga oshirish va pul mablag‘larini yuborishda kompaniya bank xizmatlarini arzonlashtirilgan holda ko‘rsatishi ma’lum qilindi.

### Tinchlik va do‘stlik tarannumi

*Nukus shahrida “Xalqlar do‘stligi kuni”ga bag‘ishlangan “Do‘stlik” festivali doirasida Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston, Ozarbayjon, O‘zbekiston Respublikalarining taniqli san’atkorlari ishtirokida gala-konsert dasturi bo‘lib o‘tdi.*

Unda turli millat vakillarining Vatan, tinchlik va do‘stlikni tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlari tadbir qatnashchilarida katta taassurot qoldirdi. Bayram tadbirlari Nukus shahri markazidagi “Do‘stlik” kanali bo‘yida xalq sayillari, milliy madaniy markazlar tomonidan tayyorlangan taomlar, rassomlar va hunarmandlarning ko‘rgazmalari bilan davom etdi.

### Hokim va yoshlar uchrashuvi



*Farg‘ona shahridagi Islom Karimov nomidagi viloyat teatr-konsert saroyida viloyat hokimi Xayrullo Bozorovning yoshlar bilan yuzma-yuz muloqoti bo‘lib o‘tdi.*

Uchrashuvda shahar va tumanlardan kelgan 200 nafardan ziyod barkamol avlod vakillari — talabalar, sportchilar, yosh tadbirkorlar hamda yoshlar yetakchilari va faollar qatnashdi.

Yigit-qizlar viloyat hokimiga ko‘plab savollar bilan yuzlanishdi. Shu tariqa “Zakovat” intellektual o‘yinlarini o‘tkazib borish uchun doimiy bino bilan ta’minlash, So‘x tumanida madaniyat markazi bunyod etish, mahalla yoshlarini kasb-hunarga bepul o‘qitish, yosh tadbirkorlarga kredit ajratish kabi ko‘plab masalalarga ijobiy yechim topildi.

**“Xalq so‘zi”.**

# BARQAROR KELAJAKKA MUSHTARAK YONDASHUVLAR

1 Bugungi kunga kelib esa ulug‘ bobomiz nomi berilgan universitetimiz tomonidan qardosh turkiylarni birlashtirish va madaniyatlarini yaqinlashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, joriy yilning 8-fevral kuni Turkiyaning qadim poytaxti Bursa shahrida joylashgan UludaQ universitetida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va madaniyati markazi ochildi. Shu yilning o‘zida Ozarbayjon va Qozog‘istonda ham ana shunday markazlarni ochish rejalashtirilmoqda. Hammualliflikda o‘zbek — ozar adabiy aloqalari haqida kitoblar yozildi. Ikki xalq mutafakkir shoirlari, mumtoz va zamonaviy adabiyot namoyandalarining tavallud kunlari munosabati bilan muntazam ravishda qo‘shma ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish an’anaga aylandi. Majoziy ma’noda aytganda, Alisher Navoiy ikki yurt madaniyatini “yakqalam” qildi.

Qirg‘iz Respublikasi bilan ham hamkorlik masalalari har qachongidan qizg‘in tus olgan. 2023-yilda O‘sh shahrida Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va madaniyati markazi ochilgani, birgina oliygohimiz tomonidan QirQizistonning sakkizta universiteti bilan hamkorlik qilinayotgani ilmiy, madaniy aloqalarimiz tobora rivojlanayotganidan dalolat. Olimlarimiz muntazam ravishda hamkasblari bilan o‘zaro muloqot qilib, hamkorlikda tashkil etilayotgan ilmiy anjumanlarda oliy ta’lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalar, metodik usullar, muammo va yechimlar haqida ma’ruzalar qilishmoqda. Bu ishlarning barchasi turkiy xalqlar umumiy taraqqiyoti va farovonligi sari mushtarak intilishlarimizning yaqqol timsoli, desak, mubolag‘a emas.

Shak-shubhasiz, Turkiy davlatlar tashkiloti ko‘zlagan ezgu maqsadlarga erishishda bu davlatlarda yashaydigan xalqlarning roli va o‘rnini oshirish obyektiv zaruratga aylanmoqda. Zotan, biz qardosh xalqlar turkiy davlatlar o‘zaro hamkorligining asosiy drayveri sanalamiz. Zero, biz ko‘zlagan maqsadlar ezgu, tariximiz va kelajagimiz mushtarak. Shunday ekan, 2022-yil noyabrda bo‘lib o‘tgan Samarqand sammitida, shuningdek, Shushada erishilgan tarixiy kelishuvlarni hayotga joriy etish va unga og‘ishmasdan rioya qilish asosiy maqsadimiz bo‘lmog‘i shart.

Ishonch bilan ayta olamizki, turkiy davlatlar rahbarlarining Shushada bo‘lib o‘tgan sammiti madaniygumanitar, iqtisodiy-siyosiy, logistika va xavfsizlik sohalarida xalqaro hamkorlikning yangi yo‘nalishlari hamda mexanizmlarini ochib berishi bilan aloqalarni yangi bosqichga ko‘tardi. Sammit butun turkiy dunyoni birlashtirish, davlatlar o‘rtasidagi siyosiy-iqtisodiy integratsiyalashuvda muhim burilish bo‘ladi. Turkiy davlatlar rahbarlarining diplomatiyasi tufayli mazkur tashkilot izchil ravishda konstruktiv hamkorlik, o‘zaro ishonch va do‘stlik timsoli sifatida muvaffaqiyatli diplomatik maydonga aylanib bormoqda. Shu sababli o‘zaro ishonch va mustahkam do‘stlikka asoslangan hamkorlik turkiy davlatlarning yanada yuksalishida hal qiluvchi o‘rin tutadi.

**Shuhrat SIROJIDDINOV,**
**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik.**

# UCHTA SAMARADOR LOYIHA SHAROFATI



1 — Natijada qurilish va bunyodkorlik ishlarini belgilangan grafikdan og‘ishmay amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Umumiy qiymati 1,7 mlrd. AQSH dollaridan ortiq mazkur uchta loyihaning qurilishi muddatidan avval yakunlanib, 2019-yilning 28-dekabrida polivinilxlorid kompleksining ishga tushirilishi nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo mintaqasi kimyo sanoatida yangi davrni boshlab berdi.

Ishga tushirilgan yangi texnologiyalar qisqa fursatda to‘la quvvatda faoliyat ko‘rsatib, yiliga 100 ming tonna polivinilxlorid, 75 ming tonna kaustik soda, 300 ming tonna metanol kabi asosiy va o‘nlab turdagi yondosh mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Barcha turdagi mahsulotlar Yevropa standartlariga to‘liq javob beradi. Natijada Avstriya, Vengriyaga, shuningdek, MDO‘ va Osiyo mamlakatlariga mahsulot eksporti hajmi yildan-yilga oshib bormoqda.

— Quvonarlisi, ushbu investitsiyaviy loyihalar samarasi o‘laroq 1965-yildan buyon foydalanib kelinayotgan azot kislotasi ishlab chiqarishning 1 va 2-navbatlari ekspluatatsiyadan olindi, — deydi “Navoiyazot” markaziy laboratoriyasi boshlig‘ining nazorat bo‘yicha o‘rinbosari Saodat Haqberdiyeva. — Yangi quvvatlardagi dastgohlar Italiya, Daniya, Shveysariya, Yaponiya, Xitoy va boshqa bir qator ilg‘or mamlakatlarda tayyorlangan bo‘lib, atrof-muhitga tashlanayotgan zararli chiqindilar va moddalarni qat’iy nazorat qiladi, me’yordan ortiqcha zarar uchun ogohlantirish signalini beradi.

Bu kabi zamonaviy va jahon standartlari asosida ishlaydigan texnologiyalar navoiylik kimyogarlarga mahsulot hajmini oshirish, tannarxini pasaytirish, raqobatbardoshligini ta’minlashda qo‘l kelmoqda. Muhimi, dunyoda kimyoviy birikmalarga talab muttasil oshib borayotgan sharoitda bu yangilanishlar mamlakatimiz kimyo sanoatining tashqi bozordagi mavqeini yanada mustahkamlayotir.

**Temur ESHBOYEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xorijiy til o‘qituvchilari kamida “V2” darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo‘lishi talabi 2025/2026-o‘quv yiliga qadar uzaytirilmoqda.**

# INSON QADRI ULUG‘LANGAN YURTDA AHOLI FAROVON YASHAYDI



1 Xususan, davlatimiz rahbarining 2023-yil 1-iyunda imzolangan Farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, shuningdek, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar)larda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilgani tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Alohida ta’kidlash joizki, sohadagi natijadorlik, avvalo, ijtimoiy xizmat va yordam mahalla darajasida tashkil etilayotganida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, kam ta’minlangan oilalar manzilli o‘rganilgani hamda tizim shaffof qilingani natijasida doimiy daromadga ega, boqimanda kayfiyatda qolib ketgan oilalar bunday toifadan chiqarildi. Aksincha, o‘zgalar parvarishiga muhtoj, yolg‘iz yashayotgan kishilarga yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi o‘zgardi. E’tiborlisi, muhtojlarning har biri bo‘yicha individual ijtimoiy xizmatlar dasturi ishlab chiqilib, bu borada yagona savolnoma joriy qilindi. Xonadonga “mahalla yettiligi”ning qaysi vakili kirishidan qat’i nazar, oiladagi muammo va imkoniyatlar aniqlanib, “ijtimoiy portreti” chizilmoqda. O‘rdamdan so‘ng xonadonda nima o‘zgargani monitoring qilinib borilayotgani esa natijalar sarhisobini ta’minlayotir.

Yana bir muhim jihati — mahalladagi barcha ijtimoiy xizmatlarni bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi orqali taqdim etish yo‘lga qo‘yilganidir. Bunda xizmat ko‘rsatuvchi ham, yordam oluvchi ham o‘ziga majburiyat olmoqda.

Nafaqa oluvchilar ro‘yxatiga, birinchi navbatda, nogironligi bor, ota-onasi yo‘q, boquvchisini yo‘qotgan, kasalligi va boshqa sababga ko‘ra uzoq muddat ishlay olmaydiganlarning oilalari kiritilgani, shuningdek, boshqa fuqarolarni “ijtimoiy reestr”ga kiritishda ularning faqat daromadi emas, balki xarajatlari ham baholanayotgani tizim shaffofligini, adolat tamoyillarini ta’minlamoqda.

O‘rdamga muhtoj oilalar, ayollar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun respublika miqyosida joriy etilgan “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari” va “mahallabay” ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotdagi yaqqol ifodasini namoyon etyapti.

Bir vaqtlar shunday ro‘yxatda turgan oilalar manzilli qo‘llab-quvvatlashlar evaziga bugunga kelib ish beruvchiga aylanib, o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini yo‘lga qo‘ymoqda. Hatto nogironligi bor shaxslar ham “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, “mahalla yettiligi” ko‘magi bilan oilasiga daromad keltiradigan faoliyat turlariga jalb qilinyapti. Bu esa ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, o‘zidagi qobiliyatni yuzaga chiqarishiga, hayotga qiziqishining ortishiga xizmat qilmoqda.

## Kambag‘allikni qisqartirish — xalqparvarlik tamoyilida bosh mezon

Yer yuzidagi ziddiyatlar, tabiiy ofatlar, pandemiya, ishsizlik va boshqa sabablar tufayli aholi orasida tabaqalashuv kuchayib bormoqda, kambag‘allik ortyapti. Shu bois kambag‘allikni qisqartirish masalasi barcha mamlakat oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda kambag‘al aholi qatlami mavjud bo‘lsa-da, uzoq vaqt bu mavzu tilga olinmay kelgani hech kimga sir emas. Biz yaqin-yaqingacha bunday toifadagi odamlarni “kam ta’minlangan” iborasi bilan tilga olardik.

Davlatimiz rahbari 2020-yil fevraldagi parlamentga Murojaatnomasida ilk bor O‘zbekiston aholisining kambag‘al qatlami haqida so‘z yuritdi. Respublika aholisining 12 – 15 foizi kambag‘al ekani, ularning umumiy soni 4,5-5 million nafarligini alohida ta’kidladi. Ushbu muammoga ilg‘or xorijiy tajriba va yangi yondashuvlar asosida yechim topish hamda ularni hayotga izchil tatbiq etishga qattiq kirishildi.

Xo‘sh, mamlakatimizda kambag‘allik darajasi ortishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?

Asosan, qishloq joylarda aholining yetarli bilim va malakaga ega emasligi natijasida mehnat bozorida raqobatga dosh berolmaganini ta’kidlash lozim. Bunga, shuningdek, ta’lim tizimidagi qoloqlik va hududlarda tibbiy xizmat sifatining pastligi ham ta’sir qildi. Aholining ba’zi qatlamlarida boqimandalik kayfiyatining yuqorilashgani, milliy urf-odatlar bahonasida ortiqcha sarf-xarajatlarga moyillikni ham keltirish mumkin. Ayniqsa, ayrim hududlarda ishsizlik yuqori darajaga chiqdi. Yangi ish o‘rinlari tashkil etilishi faqat qog‘ozdagina bajarildi. Natijada odamlarning daromadi kamayib ketdi, yashash darajasi pasaydi.

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi rasman e’tirof etilib, unga qarshi kurashish choralari ko‘rilayotgan bir paytda pandemiya boshlandi. Koronavirus pandemiyasining og‘ir asoratlari dunyo davlatlari qatorida mamlakatimizni ham chetlab o‘tmadi. Yashash uchun eng muhim resurs — moddiy ta’minlanganlik darajasi tushib ketdi. Ishsizlar, bemorlar, moddiy yordamga muhtojlar soni ortdi.

Ana shunday og‘ir sharoitda ehtiyoji o‘ta yuqori fuqarolarni aniqlab, ularni moddiy qo‘llab-quvvatlovchi dastur — “temir daftar” tizimining joriy etilgani vaziyatni yengillashtirdi. Respublika miqyosida dastlab mazkur ro‘yxatga 594,3 ming oila va ularning 2,5 million a’zosi (shundan 648 ming nafar mehnatga layoqatli ishsiz oila a’zolari) kiritilib, bir yil o‘tmasdan 641,3 ming nafarining (99 foiz) bandligi ta’minlandi.

Shuningdek, o‘rta va uzoq muddatlarda kambag‘allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi ekspertlari bilan birga 2021 — 2030-yillarga qadar O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi ishlab chiqildi.

Ishsiz a’zolari bor bo‘lgan hamda ijtimoiy daftarlarga kiritilgan oilalarga qo‘shimcha daromad topish imkoniyatini kengaytirish uchun 2021-yil 1-iyuldan boshlab dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun yangi o‘zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlaridan 10 sotixdan 1 gektargacha yer ajratilishi yo‘lga qo‘yildi. Ajratilgan yer maydonlari sug‘orish tizimi hamda elektr energiyasi bilan ta’minlanishi, berilgan yerlarni o‘zlashtirish uchun subsidiyalar ajratilishi belgilandi. Moddiy yordamga muhtojlar ro‘yxatiga kiritilgan fuqarolarga turli grant, nafaqa va boshqa to‘lovlardan foydalanish imkoniyatlari oshirildi.

Shuningdek, ishsiz fuqarolarni 40 turdagi kasb-hunarga bepul o‘qitish, ularni tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘rgatish, tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi uchun chet tillarga o‘qitish kabi amaliy ishlar bajarilmoqda. Bundan tashqari, ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ko‘lami ham kengaytirildi. Misol uchun, birgina shu yilning o‘tgan olti oyida 18 600 ta yangi xonadon qurilib, foydalanishga topshirildi. 26 mingta oilaga 7 trln. so‘mga yaqin ipoteka krediti ajratildi. Kam daromadlilarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida boshlang‘ich to‘lov va foizni qoplash uchun 545 mlrd. so‘mlik subsidiya mablag‘lari berilgani, ayniqsa, tahsinga sazovor.

Prezidentimiz tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida ilgari surilgan tashabbus doirasida mamlakatimizda o‘tkazib kelinayotgan kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xalqaro forum bu borada yangi g‘oyalar va amaliy choralar ishlab chiqish bo‘yicha foydali muloqot maydoniga aylandi. Ushbu platforma O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish maqsadida boshlangan shiddatli islohotlarni yanada boyitib, katta ijobiy o‘zgarishlarga hissa bo‘lib qo‘shildi. Buning yaqqol misoli sifatida 2022-2023-yil mobaynida yurtimizda kambag‘allik darajasi pasayib, 1 million fuqaro kambag‘allikdan chiqarilganini alohida ta’kidlash lozim. Mahallalarda ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish orqali mamlakatimizdagi 2,3 milliondan ziyod muhtoj oilalar, xotin-qizlar, yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar ijtimoiy himoya bilan to‘liq qamrab olindi.

Bunday natijalarga erishishda aholini zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish, ularga munosib ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli va uzoqni ko‘zlagan siyosat hal qiluvchi omil bo‘lmoqda.

> ***“Prezidentimiz tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida ilgari surilgan tashabbus doirasida mamlakatimizda o‘tkazilib kelinayotgan kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xalqaro forum bu borada yangi g‘oyalar va amaliy choralar ishlab chiqish bo‘yicha foydali muloqot maydoniga aylandi. Ushbu platforma O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish maqsadida boshlangan shiddatli islohotlarni yanada boyitib, katta ijobiy o‘zgarishlarga hissa bo‘lib qo‘shildi. Buning yaqqol misoli sifatida 2022-2023-yil mobaynida yurtimizda kambag‘allik darajasi pasayib, 1 million fuqaro kambag‘allikdan chiqarilganini alohida ta’kidlash lozim.”***

## Ezgu tashabbuslar samarasi va natijadorlik

Kambag‘allikni qisqartirish borasida boshlangan keng ko‘lamli ishlar “inson — jamiyat — davlat” tamoyili asosida davom ettirilmoqda. Eng avvalo, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishning drayveri bo‘lgan xususiy sektor va tadbirkorlik uchun eng qulay sharoitlar yaratib berilyapti.

Prezidentimiz raisligida joriy yilning 17-iyul kuni hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida keltirilgan raqamlar, belgilab berilgan vazifalar buning yorqin isbotidir.

Jumladan, Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G‘ijduvon tajribalari natijasida olti oyda 4 mingdan ortiq mahalla sanoat va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashtirilgan, 1 million 600 ming aholi rasmiy band bo‘lgan, 712 mingta yangi daromad solig‘i to‘lovchi paydo bo‘lgan.

Joriy yil 1-dekabrgacha Sayxunobod tajribasi asosida 495 ming aholining bandligi ta’minlanadi. Ikkinchi yarim yillikda “Oilaviy tadbirkorlik” dasturi qamrovi 1,5 barobar oshirilib, 4 trln. so‘m ajratiladi.

Uychi tajribasiga asosan, tuman hokimi va bank rahbarlari tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning biznesini kengaytirishga ko‘maklashadi. Bunda hokim yer, elektr, suv, yo‘l va boshqa infratuzilma masalalarini hal qiladi, bank esa mablag‘ ajratadi. Bu orqali yil yakunigacha 670 ming aholi bandligi ta’minlanadi.

G‘ijduvon tajribasi asosida yil yakuniga qadar mingta mahallaning o‘zida ko‘p qavatli sanoat binolari tashkil qilinishi orqali 140 ming ish o‘rni yaratilsa, Zarbdor tajribasi asosida tumanlarda sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar sohasida drayver loyihalar qilinishi ortidan 150 ming ish o‘rni vujudga keladi.

Mahallalar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida aholi o‘zi tanlagan loyihalarga “ochiq byudjet” tizimi orqali ajratilayotgan mablag‘lar hajmi keskin ko‘paytirilgani turmush farovonligining oshishiga xizmat qilayotir. Shu bilan birga, ushbu tajriba mahallalarda yangidan-yangi tadbirkorlik subyektlari ochilishiga, ish o‘rinlari vujudga kelishiga xizmat qilmoqda. E’tiborlisi, shu yilning o‘zida mahallalarni obod qilish, bog‘cha, maktab, tibbiyot, yo‘l, suv, elektr kabi infratuzilmani yaxshilash uchun byudjetdan 31,5 trln. so‘m ajratilgani, bunga qo‘shimcha yana 1,5 trln. so‘m berilishi e’tiborga molik.

Ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta’lim berish, malakali tibbiy yordam ko‘rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a’zolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida.

## Hayotda o‘z ifodasini topayotgan amaliy sa’y-harakatlar

Ijtimoiy himoya sohasi haqida gapirganda, pensionerlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlarni ta’kidlab o‘tish joiz. Bunda, ayniqsa, pensiya tizimi takomillashtirilib, raqamlashtirilayotgani, pensiya miqdori muntazam oshirib borilayotgani e’tiborga molik. Zero, islohotlarimiz bosh maqsadi xalqimiz manfaatlarini kafolatlash.

Shu nuqtayi nazardan, keksa, boquvchisini yo‘qotgan va mehnatga layoqatsiz aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi bosqichma-bosqich isloh qilinib, fuqarolarga pensiya tayinlash yuzasidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash hamda ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, fuqarolarga to‘lanadigan to‘rt turdagi ijtimoiy to‘lovlarni ularning murojaatisiz proaktiv shaklda, ikki turdagi ijtimoiy to‘lovlarni kompozit shaklda hamda yana to‘rt turdagi ijtimoiy to‘lovlarni qo‘shimcha hujjatlar talab qilmagan holda birgina pasport asosida tayinlash amaliyoti joriy etildi.

Aholiga pensiya tayinlash tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini faol tatbiq qilgan holda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati oshirildi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2023-yil 31-oktyabrdagi “Aholiga pensiya tayinlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan pensiya tayinlashda davlat xizmatlari sifati kuchaytirildi. 2022-yil 1-iyunga qadar pensiya tayinlash uchun fuqarolardan 14 ta tashkilotdan 30 dan ortiq turdagi hujjatlar talab qilinib, ularni yig‘ishga 6 oygacha vaqt sarflangan bo‘lsa, bugungi kunda ma’lumotlari elektron bazada mavjud bo‘lgan fuqarolar pensiya tayinlanishi uchun faqat pasport taqdim etish bilan kifoyalanmoqda.

Ma’lumki, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalariga yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, muomalaga layoqatsiz va layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar kiradi.

O‘zbekiston 2021-yilda BMTning Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘shilgan. Ushbu konvensiya talablari yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o‘z aksini topib, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilandi. Buning amaldagi tasdig‘i esa hayotda o‘z ifodasini topmoqda. Jumladan, nogironligi bor shaxslarni ishga olgan korxona va tashkilotlar uchun bir qator imtiyozlar berilgan.

Ahamiyatli jihati, nogironligi bo‘lgan shaxslarni o‘qitish, ishga joylash va sportga jalb qilish bo‘yicha milliy tizim yaratildi. Bunday shaxslarga ishlash va kasb-hunarga o‘qishda to‘siqsiz muhit yaratish uchun ularning “mehnatga layoqatini belgilash” amaliyotidan voz kechilib, nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanmoqda.

Tuman markaziy shifoxonalarida tibbiy reabilitatsiya xonalari tashkil etilgan bo‘lib, protez vositalari 18 turdan 30 turga ko‘paytirildi, ajratilayotgan mablag‘ esa 1,5 barobar oshirildi. Ta’minlash jarayoni elektron shaklga o‘tkazildi. Bunday vositalarni hozir uydan turib, vaucher orqali onlayn yoki “Inson” markazi yordamida istalgan ishlab chiqaruvchidan olish mumkin.

> Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimining takomillashuvi nafaqat ehtiyojmand oilalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga yordam ko‘rsatish, ularning turmush darajasini ko‘tarishga, balki aholi o‘rtasida kambag‘allikni qisqartirib, farovonlikni oshirishga, qisqacha aytganda, inson qadrini ulug‘lashga xizmat qilmoqda.

**Mahmudjon BOLTABOYEV,**
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

# EPLAGAN — MILLION TOPAR

*Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirishga, tomorqadan unumli foydalanib, oilasi farovonligi, bozorlar to‘kinligiga munosib hissa qo‘shayotgan odamlar ko‘paymoqda.*

### Mehnat va rohat

Bunga bir misol. Sho‘rchi tumanidagi Sovjironbobo mahallasi hududida bruschatka, tunikafon, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlashga mo‘ljallangan yog‘och idishlar ishlab chiqarilishi hamda issiqxona, chorvachilik, parrandachilik faoliyatlari yo‘lga qo‘yilishi hisobiga yuzga yaqin ish o‘rinlari yaratilgan.

— Mahallamizda 671 xonadon bor, — deydi tuman hokimining “Sovjironbobo” MFYdagi yordamchisi Muhiddin Xoliqulov. — Ushbu xonadonlarni yil boshida birma-bir xatlov qildik. Ularda aniqlangan 98 nafar ishsizlar ro‘yxati shakllantirilib, chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Prezidentimizning 2023-yil 14-sentyabrda qabul qilingan “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori doirasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan fuqarolarga 100 million so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi. Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlarida besh nafardan o‘n nafargacha fuqarolar ishga joylashtirildi.

Shu mahallada yashovchi Gulsoat Kunarova boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lsa-da, bo‘sh vaqtini daromadli ishga yo‘naltirgan. Mo‘jaz uy sexida mehnat qilib, shuning ortidan ro‘zg‘orini butlab, farzandlarini o‘qitmoqda, shinam uy-joylar quryapti. E’tiborlisi, o‘nlab xonadonlarga ham baraka kirishiga hissa qo‘shayotir.

— Dastlab oila a’zolarimiz bilan ishni boshlaganimizda bir kunda 100 — 150 ta yog‘och idish tayyorlardik, — deydi Gulsoat Kunarova. — Mijozlarimiz ko‘paygani sari faoliyatimizni kengaytirish istagi tug‘ildi. Mahallamizdagi hokim yordamchisining ko‘magi bilan imtiyozli kredit olib, ishlab chiqarish hajmini oshirdik. Uy seximizda 10 ta doimiy ish o‘rni yaratilgan. Mavsumiy 30 nafargacha xotin-qizni ish bilan ta’minlaymiz. Ish yengil, og‘ir mehnat talab etmaydi. Idish to‘rt bosqichda yog‘ochlarni mix bilan biriktirish orqali tayyor holga keladi. Ayollar bemalol uddalay oladi. Bir dona mahsulot tayyorlashda 8 ming so‘m sarflasak, mijozlarga ularni 12 ming so‘mdan sotamiz.

Kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar, ayollar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun respublika miqyosida joriy etilgan “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”



va “mahallabay” ishlash tizimi bugungi kunda o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Buning isbotini ilgari shunday ro‘yxatda turuvchi oilalar manzilli qo‘llab-quvvatlash evaziga bugun ish beruvchiga aylanib, o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygani misolida ko‘rishimiz mumkin.

Denovlik Aziza Boynazarova 2022-yilda “yoshlar daftari”ga kiritilgan edi. Bugungi kunda berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, Istiqlol yulduzi mahallasida tikuvchilik o‘quv kursini tashkil etdi. Unda “ayollar daftari” ro‘yxatida turuvchi xotin-qizlar o‘qib, tikuvchilik kasbini o‘rganishmoqda.

— Mahallamiz yoshlar yetakchisi tomonidan “yoshlar daftari” ro‘yxatiga kiritilganimdan so‘ng monomarkazda tikuvchilik yo‘nalishi bo‘yicha bepul hunar o‘rgandim, — deydi Aziza Boynazarova. — Keyin subsidiya asosida mahalla tomonidan tikuv dastgohlari berildi. Mijozlar ko‘payib, daromadim ortgach, o‘zimda ham tikuvchilik o‘quv kursini tashkil etish istagi paydo bo‘ldi. Mahallamizdagi hokim yordamchisiga murojaat qilgandim, moliyaviy ko‘mak berildi, joy ham ajratildi. “Ayollar daftari” ro‘yxatida turuvchi xotin-qizlar uchun hunar o‘rganish bepul. Uch kurs shogirdlarim o‘qishni tamomladi. O‘shlar yetakchisi maxsus sertifikat bilan tikuv mashinalari bermoqda va ularning aksariyati o‘z uyida mustaqil faoliyat yurita boshladi.

Eplagan — million topar, eplamagan — bahona. Quvonarlisi, surxondaryoliklar million topishni afzal bilmoqda.

**Farhod ESONOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# “DINAMO” MINSK — “PAXTAKOR” TOSHKENT

## yoki 45 yildan so‘ng o‘tkazilayotgan o‘yin

*11-avgust kuni Dneprodzerjinsk osmonida ikkita Tu-134 samolyoti to‘qnashib ketishi natijasida bortdagi barcha 178 yo‘lovchi, jumladan, Minskda “Dinamo” jamoasi bilan futbol bo‘yicha sobiq ittifoq chempionatining navbatdagi tur o‘yinini o‘tkazish uchun borayotgan Toshkentning “Paxtakor” futbol klubining 17 nafar futbolchisi hamda murabbiylar shtabi a’zolari vafot etgan aviahalokatga 45 yil to‘ladi.*

### Biz va jahon

1979-yil 11-avgust kuni sodir bo‘lgan mazkur mudhish aviahalokat oqibatida Ravil Agishev, Mixail An, Olim Ashirov, Sirojiddin Bozorov, Konstantin Bakanov, Yuriy Zagumennix, Shuhrat Eshbo‘tayev, Aleksandr Korchyonov, Nikolay Kulikov, Vladimir Makarov, Sergey Pokatilov, Vladimir Fyodorov, Vladimir Sobirov, Viktor Churkin, Idgay Tazetdinov, Mansur Tolibjonov, Vladimir Chumakov halok bo‘ldi.

Belarus futbol federatsiyasi portali ma’lumotiga ko‘ra, 45 yildan keyin Minskda “o‘tkazilmagan o‘yin” davom etadi. 2024-yilning 11-avgust kuni “Dinamo-Yuni” stadionida “Paxtakor” faxriylari, jumladan, 1979-yilgi tarkib bilan Belarus poytaxtiga uchmagan futbolchilar va “Dinamo” Minsk faxriylari o‘rtasida o‘rtoqlik o‘yini tashkil qilinadi.

O‘sha davr muhitini yaratish uchun tashkilotchilar har ikki jamoa futbolchilari va o‘yinni boshqarib boradigan hakamlar uchun retro liboslarni taqdim etishni rejalashtirmoqda.

Tadbir doirasida “Paxtakor” futbol klubi faxriylari bilan teleko‘prik uyushtirish va klublar rahbarlarining chiqishlari rejalashtirilgan.

O‘zbekiston va Belarus Prezidentlari ko‘magida bo‘lib o‘tadigan o‘rtoqlik o‘yini “Xotira uchrashuvi — Tinchlik o‘yini” bosh g‘oyasi ostida tashkil etiladi.

Uchrashuvda “Paxtakor” jamoasi faxriylaridan Ahmad Ubaydullayev, Rustam Mirsodiqov, Gennadiy Denisov, Marat Kabayev, Igor Shkvirin, Farhod Magomedov, Anatoliy Solovyov, Aleksandr Juravlev, Erkin Vohidov, Igor Povalyayev, Rinat Fayruzov, Oleg Sinelobov, Oleg Sabirov qatnashadi.

Minskning “Dinamo” klubi sharafini esa 1979-yilgi tarkib a’zolari — Eduard Malofeev, Veniamin Arzamassev, Anatoliy Baydachniy, Sergey Borovskiy, Igor Gurinovich, Yuriy Truxan, Igor Belov, Yuriy Kurbiko, Viktor Shishkin, Valeriy Shaveyko, Vladimir Kurnev, Georgiy Kondratyev, Valeriy Melnikov, Aleksandr Alekseychikov, Leonid Vasilevskiy, Anatoliy Usenko himoya qiladi.

**“Dunyo” AA.**
Minsk

**Dehlida Boburiylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan Butunjahon merosi muzeyi tashkil etildi.**

# TOK OSTIGA KO'MILGAN XAZINA



*Usmonxon ota Oripovning Piskent tumani Mingtepa mahallasidagi tomorqasiga borsangiz, aqlingiz shoshadi. Xoh ishoning, xoh ishonmang, 30 sotix joyda osmon ko'rinmaydi. Tepaga qarasangiz, g'uj-g'uj hosil, qop-qora "Namangan chillakisi" navli uzum shiraga ingan. U tomonda "Rizamat ota" navli uzum mo'lligidan tok navdasini bukib turibdi. Go'yo osmondan baraka yoQilib tushgandek. Bu haqiqiy mo'jizaning o'zi. Uni bog'bon o'z qo'llari bilan yaratgan. Mehnatkash bu insonni tomorqachilikning "professori" desak bo'ladi. Chunki u tokning nima deyayotganini, nima so'rayotganini yoki qayeri "og'riyotganini" xuddi olimlardek biladi. Bu tajriba unga otameros.*

## Tomorqachilik

— "Osmondan baraka yog'ilib turibdi", deb rosa gapning kiftini keltirdingiz, — deydi miyig'ida kulib Usmonxon ota Oripov. — Ammo tok qancha osmonga ko'tarilmasin, tomiri ona zaminda. Kuchni yerdan olyapti. Aslida oltinga teng tuprog'imizning o'zi mo'jiza. U bilan tillasha olsangiz, xazinasini ochadi. Xuddi u qo'llarida sizga rizq uzatib turgandek ko'rinadi. Shuning uchun ham zaminimizni Ona Yer, deb suyamiz.

Otam rahmatli o'limi oldidan yetti singlingni senga topshirib ketyapman, deb qo'llari bilan tokzorlarga ishora qilgan edi. Men o'shanda tushunmagan ekanman. Bilsangiz, yetti singlimni shu tomorqada mehnat qilib, kam-ko'stsiz uzatdim. Birortasi o'ksigani yo'q. Shu mehnat orqali xalqimiz dasturxoniga fayz kirdi, bozorlarimiz to'kinligi ta'minlandi. Shundan bo'lsa kerak, yeri qarovsiz qolgan kishilarni ko'rsam, ayab o'tirmayman. Qattiq gapiraman. "Bu o'zimning yerim, istasam, ekaman, istamasam yo'q", deyishadi ba'zilari. To'g'ri, yer seniki, lekin unda ko'pchilikning rizqi bor, bu rizqni barbod qilishga sening haqqing yo'q, deyman.

Bog'bonning aytishiga ko'ra 30 sotixni egallagan 500 tupdan ziyod hosilli toki bor. "Namangan chillakisi" ertapishar. 170 tup shu navdagi uzum shirasi tilni yoradi. Peshma-pesh Toshkent shahridagi bozorlarga olib chiqib sotishmoqda. Undan keyin "Pobeda" va "Rizamat ota" navli uzumlar yetiladi. Hammasi bozorda xaridorgir. Otaxon bir mavsumda kamida 100 mln. so'm daromad olishni ko'zlab turibdi. Anomal sovuq ham bu bog'larga ta'sir o'tkaza olgani yo'q. Chunki usta bog'bon mehnatdan qochmaydi, toklarni ota-bobolar qo'llab kelgan usulda ko'mib chiqadi.

— Qish sovuq kelsa-kelmasa, baribir toklarni ko'maman, — deydi Usmonxon ota. — Chunki tok yer ostida "orom" olishi kerak. Ko'milgan tok esa juda serhosil bo'ladi. Buni tajribalarda



sinovdan o'tkazganman. Shuning uchun bu usulni qo'llashni kanda qilmayman. Har biri odamning bilagiday keladigan va shox boylab, tarvaqaylab ketgan bu toklar qanday ko'miladi, deb ajablanishingiz mumkin. Buni amalga oshiradigan ishchilar bor. Har mavsumda 6 nafar kishini mavsumiy ishga jalb etaman. Topadigan daromadimning 20 foizini ularga ish haqi qilib beraman. Tokni kuzda ko'mish, bahor oyida ochish, tagiga ishlov berish kabi yumushlarni ular kam-ko'stsiz bajarishadi. Shunga yarasha maosh ham olishadi.

Usmonxon ota xonadonidan qishin-yozin uzum arimaydi. Qish chillasi deysizmi, ko'klam va ayni bahor payti deysizmi, yangi uzilganday durkun uzum dasturxonni bezab turadi. Azaldan ota-bobolarimiz ham uzumni qishga asrab, shifobaxsh dorivor sifatida foydalanishgan. Otaxon ham padaridan o'rgangan usullar haqida so'zlab berdi.

— Uzum — juda shifobaxsh ne'mat, — deya fikrini davom ettiradi u. — Mashhur hakim Abu Ali ibn Sino uzum va mayizni ichak og'riqlari, buyrak va qovuq noxushliklarini bartaraf etishda ishlatganini o'qiganman. Hatto bargi va jingalaklaridan bosh oQriQi, ko'z shamollashi, me'da, quloq kasalliklarini davolashda foydalanilgan. Quritilgan barg shirasi bilan ichketma, poya va shoxlarining kuli bilan teri kasalliklarini davolagani xalqimizga ma'lum. Biz ham uzumni qish uchun asl holida asrashga harakat qilamiz. Buning uchun navdasi bilan birga uzilib, navdasining uchi suvga botirib qo'yiladi. To bahor oylarigacha uzum xuddi tokda turganday bo'liq bo'ladi. "Pobeda" navidan mayiz ham qilamiz. Mayiz danagi bilan birga xovonchada tuyilib, yong'oq bilan aralashtiriladi. Keyin alohida-alohida qilib yumaloq holga keltiriladi. Bu bolalar uchun juda foydali. Odamning ko'zini ravshanlashtiradi, buyrakni tozalaydi. Shu bois odamlar qancha ko'p uzum yesa, shuncha sog'lom bo'ladi.

Bog'bon otani uzumchilikdan baxtini topgan, desak, sira mubolag'a emas. Farzandlari Sherzod, Dilmurod va Yulduzni o'qitish, uyli-joyli qilish, farovon yashashiga ko'maklashish zamirida bog'bon mehnati mujassam. Farzandlar esa shunday otasi borligidan faxrlanishadi. Biror yumush qilayotgan bo'lsa, darrov qo'lidan ishini oladi, bir piyola ko'k choy tutqazib, siz damingizni oling, deyishadi. Lekin otaxon bunga ko'nmaydi. "Hali baquvvatman, kuch-quvvatdan qolganim yo'q", deb zarur yumushlarni o'zi bajaradi. Uzumini yeng, bog'ini surishtirmang, deydi bolalariga. Bu maqol zamirida uzumchilikning mehnati naqadar og'irligiga ishora bor.

Ota ibratli bir rivoyatni aytib berdi. Mehnatkash bir bog'bonning tanbal, ishyoqmas o'g'li bor ekan. Keksayib, belidan kuch, ko'zidan mador ketibdi hamki, uni hech ishga o'rgata olmabdi. O'limi oldida u o'g'liga "mana shu toklar ostida xazina bor, uni kovlab olgin", deb vasiyat qilibdi. O'Qil belkurak olib, barcha toklar tagini kovlab ko'ribdi, ammo oltin chiqmabdi. Shu yili tok shunday mo'l hosil beribdiki, undan kelgan daromad jaraq-jaraq pul bo'libdi. Shunda o'Qil otasi nimaga ishora qilganini anglab, padarining ishini davom ettiribdi.

— Prezidentimizning ibratli bir tashabbusi hamma joyda qanot yoza boshladi, — deydi Usmonxon ota. — O'sh, navqiron yigit-qizlarga 50 sotixdan yer ajratish joriy etildi. Bizning hududda ham tok ekish, uzum yetishtirish maqsadida yoshlarga yer berildi. Bu juda yaxshi bo'ldi. Ammo yerli yoshlarni nazorat qiladigan, ularga ish o'rgatadigan, tavsiya beradigan odamning o'zi yo'q. Shundan bo'lsa kerak, ba'zi ekilgan toklar qarovsiz qoldi, ayrimlari esa yerning umrini bekor o'tkazmoqda. Taklifim shuki, yer olgan yoshlarga usta bog'bonlar mas'ul etib qo'yilsa, nur ustiga nur bo'lardi. Masalan, men yosh bog'bonlarga tokni qanday parvarish qilish kerakligi haqida tavsiya berishdan erinmayman. Buning uchun haq ham so'ramayman. Farzandlarimizning ishga ishtiyoqi oshsa, yurtga qut-baraka kirsa, shuning o'zi kifoya.

Farg'ona viloyatining Oltiariq tumani uzumchilikning markaziga aylangan. Omilkor bog'bonlarning tajribasini mamlakatda keng yoyish bo'yicha katta sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Yaqinda oltiariqlik bog'bonlar Piskent tumanidagi uzumzorlarni ko'zdan kechirishdi, o'zlarining qimmatli tavsiyalarini berishdi. Mingtepa mahallasida ham bo'lishdi. Usmonxon ota uzumzorlariga yuksak baho berishdi. "Xuddi Oltiariqdagi uzumzorlarga kirib qolganday bo'ldik, hech qanday farqi yo'q", deb hayratlanishdi.

— Bu e'tirofni eshitib, juda quvondik, — deydi "Mingtepa" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Shuhrat Eshbekov. — Ayniqsa, Usmonxon ota Oripov tokzorlarini ko'rib, ular "Sizdan ham o'rganadigan jihatlar bor ekan", deyishdi. Qishloq xo'jaligi vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi vakillari yoshlarni olib kelib Usmonxon ota tavsiyalarini olishadi. Mahallamizda 3900 nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. 617 xonadon bor. 550 xonadon uzumchilik bilan mashg'ul. Hozirgi kunda Toshkent shahri bozorlariga kuniga 10 tonna atrofida uzum yetkazib berilmoqda. Uzumchilik nafaqat mahallamizning, balki tumanimizning ham drayveriga aylangan. Mavluda Karimova, Jo'ra Qurbonov, Rahimboy Majidov kabi usta-bog'bonlarimiz o'zlarining ortidan yoshlarni ergashtirib, ularga ota-bobolaridan meros kasb — uzumchilik sir-asrorlarini o'rgatishmoqda.

**"...Tok qancha osmonga ko'tarilmasin, tomiri ona zaminda. Kuchni yerdan olyapti. Aslida oltinga teng tuprog'imizning o'zi mo'jiza. U bilan tillasha olsangiz, xazinasini ochadi."**

Yaqinda Usmonxon ota qo'ng'iroq qilib qoldi: "Oltiariq tumanida uzumchilik tajribasi keng ommalashyapti. Bu yaxshi tashabbus. Piskent tumani bog'bonlari tajribasi ham ommalashtirilsa, yomon bo'lmasdi. Albatta, shunday deb yozing, xo'pmi?" dedi u. Bu tashabbusga qo'shilmaslikning iloji yo'q, nazarimizda.

**Faxriddin BOZOROV**
**("Xalq so'zi").**

**Kitob javoningizga**

# MEHNATKASH QALAMDAN TOMGAN BEBAHO SATRLAR

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, adib, shoir va tarjimon Nusrat Rahmat bu yil umrining 83-dovonidan oshdi, ijodkor bu yo'lda ne-ne past-u balandlik, quvonch-u zahmat, baxt-u armonlarga duch kelmadi deysiz, biroq, asosiysi, u ijod qilish, yaratish, his etish hamda yashash zavqidan bir lahza ham chetda qolmadi. Pirovardida ko'plab asarlari xalqimiz qalbi-yu kutubxonasidan munosib joy egalladi, ko'ngillarga farah bag'ishladi, ong-u shuurga muhrlandi.*




Darhaqiqat, adib qizg'in ijodiy jarayondan bir zum to'xtab qolgani yo'q, yangi asarlar bitib, o'quvchilarini xushnud etib kelyapti. Misol uchun, yaqinda uning uch jildga jamlanayotgan saylanmasining birinchi jildi chop etilib, o'quvchilar qo'liga yetib bordi. Undan muallifning "Fojia", "Ayiq ergashtirgan amaki", "Noma'lum odam hikoyasi", "Faqat xo'roz haqda emas" kabi o'ndan ortiq hikoya va so'nggi yillarda yozgan dolzarb maqolalari joy olgan. Mazkur kitobdagi asarlarda publitsistika va badiiy to'qimalar shunchalik uyg'unlashib ketganki, o'quvchi ularni qayta-qayta mutolaa qilishga oshiqadi.

Nusrat Rahmat Mahmudxo'ja Behbudiy adabiy merosini o'rganish bo'yicha ham salmoqli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, 2020-yilda nashr qilingan "Jadid" (Behbudiyga baxshida hikoyalar) nomli asari bu ezgu ishning chin ma'nodagi davomi bo'ldi. Asardagi hikoyalar faqat Behbudiy yoki jadidlar emas, balki maorif va ma'naviyat uchun jonini tikkanlar, ularning ziddiyatlarga to'la hayoti haqida ham so'zlaydi.

Muallifning yana bir jihati borki, u nimadir yozmoqchi bo'lsa, hayiqmaydi, sabot va ishtiyoq bilan ijod stoliga o'tiradi. Ko'p yillardan buyon qayta bosilib kelayotgan "Farzandga o'gitlar" kitobi ana shu intilishning mevasi, desak, ayni haqiqat. Bu kitob insonga, xususan, navqiron avlodga turfa asosli va ta'sirchan hikoyatlar orqali to'g'ri yo'lni topishda ko'mak bera olishi bilan qimmatlidir.

Fidoyi adib Nusrat Rahmatning qalamiga mansub har bir satr, so'z hamda fikr o'quvchini mushohadaga chorlab, ajib mutolaa zavqini baxsh etishiga shubha yo'q.

# SERQIRRA IJODKORNING O'QUVCHILARGA TUHFASI

*Badiiy ijod bog'i xushmanzara daraxtlari, turfa gul-u chechaklarning anvoyi ifori bilan go'zal va tarovatlidir. Taniqli publitsist, shoir, dramaturg hamda nosir, jamoat arbobi Farmon Toshev otashin she'rlari, hayotiy-falsafiy hikoyalari bilan bu bog' ko'rkiga ko'rk bag'ishlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda, desak, yanglishmaymiz. Uning yaqinda nashr qilinib, keng kitobxonlar qo'liga yetib borgan to'rt jildlik saylanmasi ham ijod yo'lidagi samarali faoliyatining yaqqol ifodasidir.*




Saylanmaning birinchi jildidan ijodkorning so'nggi yillarda yozgan qissa va hikoyalari o'rin olgan bo'lib, ular uydirmalardan xoli, yashalgan va his etilgan tuyg'ular, o'ylar natijasida qog'ozga tushirilgan. Ulardagi adabiy qahramonlarni hech ikkilanmay muhtaram o'quvchiga "Siz ularni taniysiz", deb aytish mumkin. Shu bois ularning hayoti, orzu-armonlari, g'am-tashvishlari va quvonchi, muxtasar aytganda, o'quvchinikidir.

Ikkinchi jildga ijodkorning Qarnabiy taxallusi ostida yozilgan devoni kiritilgan bo'lib, undan joy olgan g'azallar kirill alifbosi asosida joylashtirilgan. Unda 14 janrga oid ijod namunalari to'plangan. Muallif ushbu mujalladni tuzish jarayonida uzoq mehnat qilganini devondagi janr va vaznlar xilmaxilligidan ham sezish qiyin emas.

Uchinchi jild ham o'ziga xos mazmun-mundarijaga ega, hissiyot va tafakkur tegirmonida yanchilib maromiga yetgan badiiy ijodning eng go'zal janri — she'rlardan tashkil topgan. Ushbu jildda yuzga tabassum hadya etuvchi, hazil bilan yo'g'rilgan she'rlardan tortib ko'ngilni mahzun etib, o'yga toldiruvchi ash'orgacha mavjud. Bu holat hassos shoirning mahoratidan, iste'dodining betakrorligidan dalolat beradi, albatta.

To'rtinchi jilddan muallifning turli yillarda matbuot nashrlarida chop etilgan badiiy-publitsistik maqolalari, zamonamizning ilg'or kishilari haqidagi ocherklar, tarix va bugungi hayot aks etgan dramalar o'rin olgan. Kitobxon mutolaa davomida o'zi guvoh bo'lgan, ko'rgan, dildan his etgan voqelik manzaralaridan cheksiz zavq-u shavqqa to'lishi bilan birga, og'riqli, ammo hayotbaxsh o'y-xayollarga tolishi aniq.

Ushbu asarlar o'ziga xos ifoda uslubi, badiiy-estetik ta'sirchan vositalarga boyligi, hayotiy va yurakdan yozilgani bilan o'quvchilarni bee'tibor qoldirmaydi.

**"Xalq so'zi".**

REKLAMA

**GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI!**

**1. Umumiy geologiya kafedrasi:**
- professor — 1 nafar;
- dotsent — 1 nafar.

**2. Foydali qazilma konlari geologiyasi va geofizikasi kafedrasi:**
- kafedra mudiri — 1 nafar;
- dotsent — 1 nafar.

**3. Geologiya-qidiruv ishlari texnikasi va texnologiyasi kafedrasi:**
- o'qituvchi — 1 nafar.

**4. Neft va gaz geologiyasi, gidrogeologiya va geoekologiya kafedrasi:**
- kafedra mudiri — 1 nafar;
- professor — 1 nafar;
- katta o'qituvchi — 1 nafar.

**5. Iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar kafedrasi:**
- kafedra mudiri — 1 nafar;
- dotsent — 1 nafar;
- katta o'qituvchi — 1 nafar;
- o'qituvchi — 1 nafar.

**6. Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi:**
- professor — 1 nafar;
- dotsent — 1 nafar;
- katta o'qituvchi — 1 nafar;
- o'qituvchi — 1 nafar.

**Tanlovda qatnashadigan nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:**

1. Universitet rektori nomiga ariza;
2. Xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa (ma'lumotnoma);
3. Oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplomlar nusxasi;
4. Ilmiy unvon va ilmiy daraja to'g'risidagi diplomlar nusxasi;
5. Ilmiy ishlar ro'yxati (so'nggi 3 yil);
6. Malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi.

***Hujjatlar e'lon chop etilgan sanadan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.***

***Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Olimlar ko'chasi 64-uy. Tel.: 71-209-10-75.***

**"O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" turkumidagi kitob-albomlar "Hazrat Sulton" davlat tarixiy-madaniy muzey qo'riqxonasiga topshirildi.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 21.05 Topshirildi — 00.20 1 2 3 4 5 6